

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

KASIMOVA ZILOLA G‘ULOMIDDIN QIZI

TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA
IJTIMOIIY MEDIA MARKETING SAMARADORLIGINI OSHIRISH
METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati
08.00.11 – Marketing

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc) по
экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the
Doctor of Science (DSc) on economics sciences**

Kasimova Zilola G‘ulomiddin qizi

Turizmni rivojlantirishda ijtimoiy media marketing samaradorligini oshirish metodologiyasini takomillashtirish.....3

Касимова Зилола Гуломиддин кизи

Совершенствование методологии повышения эффективности социально-медийного маркетинга в развитии туризма..... 37

Kasimova Zilola G‘ulomiddin qizi

Optimization of the methodology for improving the effectiveness of social media marketing in tourism promotion.....75

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 81

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

KASIMOVA ZILOLA G‘ULOMIDDIN QIZI

TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA
IJTIMOIIY MEDIA MARKETING SAMARADORLIGINI OSHIRISH
METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati
08.00.11 – Marketing

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.DSc/Iqt1460 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferenti uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezюме)) ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.tsue.uz) va "Ziynet" axborot-ta'lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: Aliyeva Mahbuba Toychiyevna

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

G'ulomov Saidahror Saidahmedovich

iqtisod fanlari doktori, akademik

Safarov Baxodir Shaxriyarovich

iqtisod fanlari doktori, professor

Akramov Tohir Abdurahmonovich

iqtisod fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Qoraqalpog' davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti buzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2020.I.16.02 raqamli ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil 08.08 soat 14.00 daqiqa majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: tdlu@tdlu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kutubxonasida tanishish mumkin (raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: tdlu@tdlu.uz).

Dissertatsiya avtoreferenti 2025-yil 08.15 kuni tarqatildi.

(2025-yil "4" 08) dagi 24 raqamli reyestr bayonnomasi)



G.K. Abduraimanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi
Bir martalik ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

O.Dj. Djuraboyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi
Bir martalik ilmiy kengash kotibi, i.f.d., dotsent

A.A. Eshtayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi
Bir martalik ilmiy kengash qoshidagi Bir martalik
ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda XXI asrda raqamli iqtisodiyot va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari keskin rivojlanayotgan bir paytda, turizm industriyasi uchun ijtimoiy media marketingi strategik ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda AQSh, Avstraliya, Ispaniya kabi yetakchi davlatlar ijtimoiy tarmoqlar orqali turizm mahsulotlarini ilgari surish, brending va interaktiv kontent yaratish orqali milliardlab dollar daromad olishmoqda. Global miqyosda 2025-yilga kelib sayohat ilovalari foydalanuvchilari soni 850 milliondan oshishi kutilayotgani¹, pandemyadan keyingi tiklanish va raqamli texnologiyalar turizm sohasining asosiy omiliga aylanganini ko'rsatadi.

Jahonda ijtimoiy media marketing bugungi kunda turizm sohasida nafaqat axborot yetkazish, balki mijozlar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot o'rnatish, brendni shakllantirish, tahliiy natijalarni olish va sotuvlarni rag'batlantirishning samarali vositasiga aylangan. Turizmning raqobatbardoshligi endilikda kontent sifatini, vizual kommunikatsiya va ijtimoiy tarmoqlardagi ta'sirchanlik darajasi bilan belgilanmoqda. Bu esa ushbu vositalardan strategik va innovatsion foydalanish metodologiyasini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda raqamli infratuzilma jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda va bu jarayon turizmni raqamli kommunikatsiyalar orqali targ'ib qilish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. DataReportalning "Digital 2024: Uzbekistan" hisobotiga ko'ra, mamlakatda internet foydalanuvchilari soni 29,52 millionga yetgan bo'lib, bu umumiy aholining 83,3 foizini tashkil etadi. Ayniqsa, 8,70 million kishi ijtimoiy tarmoqlarda faol bo'lib, aholining 24,6 foizini qamrab olgan. Mamlakat bo'yicha 33,81 million faol mobil aloqa ulanishi mavjud bo'lib, bu 95,5 foizlik qamrov darajasini ko'rsatadi². Bu kabi ko'rsatkichlar O'zbekistonda ijtimoiy media marketing vositalari orqali turizm mahsulotlarini targ'ib qilish, milliy brend imijini shakllantirish va mehmonlar bilan to'g'ridan-to'g'ri interaktiv muloqot qilish uchun qulay zamin yaratmoqda. Aholining ko'proq yosh va texnologiyaga moslashgan qatlami aynan mobil ilovalar, vizual kontent va interaktiv reklama orqali turizmga bo'lgan qiziqishini oshirmoqda. Bu esa milliy turistik loyihalarni ijtimoiy tarmoqlarda maqsadli auditoriyaga yetkazishda yangi marketing yondashuvlarini talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida turizm sohasini modernizatsiya qilish va uni global raqobatbardosh yo'nalishga aylantirish bo'yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi³ PF-5611-son farmoni, 2023-yil 27-iyuldagi "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali

¹ Travel App Statistics. Olingan manba: <https://prioridata.com/data/travel-app-statistics/>

² DataReportal. (2024). Digital 2024: Uzbekistan. We Are Social & Meltwater. <https://datareportal.com/reports/digital-2024-uzbekistan/>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5611-son farmoni. <https://lex.uz/docs/4163193>

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda XXI asrda raqamli iqtisodiyot va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari keskin rivojlanayotgan bir paytda, turizm industriyasi uchun ijtimoiy media marketingi strategik ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda AQSh, Avstraliya, Ispaniya kabi yetakchi davlatlar ijtimoiy tarmoqlar orqali turizm mahsulotlarini ilgari surish, brending va interaktiv kontent yaratish orqali milliardlab dollar daromad olishmoqda. Global miqyosda 2025-yilga kelib sayohat ilovalari foydalanuvchilari soni 850 milliondan oshishi kutilayotgani¹, pandemiyadan keyingi tiklanish va raqamli texnologiyalar turizm sohasining asosiy omiliga aylanganini ko'rsatadi.

Jahonda ijtimoiy media marketing bugungi kunda turizm sohasida nafaqat axborot yetkazish, balki mijozlar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot o'rnatish, brendni shakllantirish, tahliliy natijalarni olish va sotuvlarni rag'batlantirishning samarali vositasiga aylangan. Turizmning raqobatbardoshligi endilikda kontent sifati, vizual kommunikatsiya va ijtimoiy tarmoqlardagi ta'sirchanlik darajasi bilan belgilanmoqda. Bu esa ushbu vositalardan strategik va innovatsion foydalanish metodologiyasini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda raqamli infratuzilma jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda va bu jarayon turizmni raqamli kommunikatsiyalar orqali targ'ib qilish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. DataReportalning "Digital 2024: Uzbekistan" hisobotiga ko'ra, mamlakatda internet foydalanuvchilari soni 29,52 millionga yetgan bo'lib, bu umumiy aholining 83,3 foizini tashkil etadi. Ayniqsa, 8,70 million kishi ijtimoiy tarmoqlarda faol bo'lib, aholining 24,6 foizini qamrab olgan. Mamlakat bo'yicha 33,81 million faol mobil aloqa ulanishi mavjud bo'lib, bu 95,5 foizlik qamrov darajasini ko'rsatadi². Bu kabi ko'rsatkichlar O'zbekistonda ijtimoiy media marketing vositalari orqali turizm mahsulotlarini targ'ib qilish, milliy brend imijini shakllantirish va mehmonlar bilan to'g'ridan-to'g'ri interaktiv muloqot qilish uchun qulay zamin yaratmoqda. Aholining ko'proq yosh va texnologiyaga moslashgan qatlami aynan mobil ilovalar, vizual kontent va interaktiv reklama orqali turizmga bo'lgan qiziqishini oshirmoqda. Bu esa milliy turistik loyihalarni ijtimoiy tarmoqlarda maqsadli auditoriyaga yetkazishda yangi marketing yondashuvlarini talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida turizm sohasini modernizatsiya qilish va uni global raqobatbardosh yo'nalishga aylantirish bo'yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi³ PF-5611-son farmoni, 2023-yil 27-iyuldagi "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali

¹ Travel App Statistics. Olingan manba: <https://prioridata.com/data/travel-app-statistics/>

² DataReportal. (2024). Digital 2024: Uzbekistan. We Are Social & Meltwater. <https://datareportal.com/reports/digital-2024-uzbekistan>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5611-son farmoni. <https://lex.uz/docs/4163193>

tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi⁴ PQ–238-son va 2023-yil 26-apreldagi “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi⁵ PQ–135-son qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi. 2023-yilda turizmni ijtimoiy tarmoqlarda faol ilgari surish uchun davlat byudjetidan 100 milliard so‘m mablag‘ ajratilgan⁶ bo‘lib, bu raqamli marketing infratuzilmasini rivojlantirishdagi e‘tiborni ko‘rsatadi. Bundan tashqari, Samarqand shahrida o‘tkazilgan UNWTOning 25-Bosh assambleyasi o‘tkazilib “Ipak yo‘lida turizm” brendi doirasida xalqaro kontent marketing kampaniyalari yo‘lga qo‘yildi⁷. Ilmiy nuqtayi nazardan esa, turizmni ijtimoiy media marketing samaradorligini baholash, indikatorlar tizimini ishlab chiqish, iqtisodiy natijadorlikni o‘lchash va milliy modelni shakllantirish kabi muammolar hali to‘liq o‘rganilmagan. Shu sababli, mazkur dissertatsiya O‘zbekistonda ijtimoiy media marketing asosida turizmni innovatsion rivojlantirish konsepsiyasini taklif etib, amaliyotga yo‘naltirilgan ilmiy-metodik yechimlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. Xorijiy davlatlarda turizm va ijtimoiy media marketingi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar, asosan, Cornell, Massachusetts, Florida va Arizona universitetlari (AQSh); Oxford, Cambridge, Leeds Beckett va Manchester Metropolitan universiteti (Buyuk Britaniya); Lund va Stockholm universiteti (Shvetsiya); Queensland, Griffith va Charles Sturt universiteti (Australiya); Heidelberg, Myunxen texnik va Berlin Humboldt universiteti (Germaniya); Sorbonna va ESSEC biznes maktabi (Fransiya); Barcelona avtomobil va Madridfaning Complutense universiteti (Ispaniya); Toronto va McGill universiteti (Kanada); Seoul milliy va Koreya universiteti (Janubiy Koreya) olimlari tomonidan olib borilgan.

Turizmni rivojlantirishda ijtimoiy media marketingi samaradorligini oshirish metodologiyasi bo‘yicha tadqiqotlar, asosan, quyidagi davlatlar va universitetlar tomonidan olib borilgan: Amerika Qo‘shma Shtalari: Cornell University (Turizm va mehmonxona boshqaruvi instituti), University of Massachusetts (Raqamli

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi “Turizm yo‘nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–238-son qarori. <https://lex.uz/docs/6641207>

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–135-son qarori. <https://lex.uz/docs/6497019>

⁶ Uzbekistan to funnel US\$ 100 bn into tourism marketing and advertisement projects. https://daryo.uz/en/2023/03/30/uzbekistan-to-funnel-us-100-bn-into-tourism-marketing-and-advertisement-projects?utm_source=chatgpt.com

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Butunjahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasining 25-sessiyasida qator muhim tashabbuslarni ilgari surdi. <https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-prezidenti-butunjahon-turizm-tashkiloti-bosh-assambleyasining-25-sessiyasida-qator-muhim-tashabbuslarni-ilgari-surdi>

marketing kafedrası), University of Florida (Sayyohlik tadqiqotlari markazi); Buyuk Britaniya: University of Oxford (Sayyohlik va raqamli transformatsiya markazi), University of Cambridge (Raqamli media va turizm instituti); Germaniya: Technical University of Munich (Raqamli turizm strategiyalari kafedrası), Heidelberg University (Sayyohlik menejmenti instituti); Fransiya: Sorbonne University (Turizm va ijtimoiy media tadqiqotlari instituti), ESSEC Business School (Raqamli marketing kafedrası); Ispaniya: Autonomous University of Barcelona (Raqamli turizm markazi); Janubiy Koreya: Seoul National University (Sayyohlik va ijtimoiy media instituti); Avstraliya: University of Queensland (Raqamli transformatsiya va turizm markazi). Ushbu universitetlar turizm sohasida ijtimoiy media marketingi va raqamli marketing bo'yicha yetakchi ilmiy maktablarni shakllantirgan.

Xorijiy davlatlarda turizm va ijtimoiy media marketingi bo'yicha tadqiqotlar olib borayotgan ba'zi nufuzli universitetlar va tadqiqot markazlari quyidagilar: Cornell University (AQSh): Turizm va mehmonxona boshqaruvi sohasida ilmiy tadqiqotlar olib boradi; University of Surrey (Buyuk Britaniya): Turizm tadqiqotlari va marketing strategiyalari bo'yicha ixtisoslashgan; University of Queensland (Avstraliya): Turizm va ijtimoiy media marketingi bo'yicha tadqiqotlar olib boradi; Università Bocconi (Italiya): Biznes va iqtisodiyot sohaslarida, shu jumladan, turizm marketingiga oid tadqiqotlarni amalga oshiradi; Hong Kong Polytechnic University (Gonkong): Turizm va mehmonxona sohasida innovatsion tadqiqotlar olib boradi; University of Central Florida (AQSh): Turizm va sayohat bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar markazi. Ushbu universitetlar xorijda turizm sohasidagi ijtimoiy media marketingidan foydalanishni o'rganish va marketing strategiyalarini tadqiq qilishda muhim rol o'ynaydi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Xiao Guo, Liping Cai, Maria Ek Styvén va Carmen Cox, Ulrike Gretzel, Marianna Sigala, Daniel R. Fesenmaier, Rob Law, Dimitrios Buhalis, Zheng Xiang⁸ kabi olimlar turizm sohasida ijtimoiy media marketingi samaradorligiga doir qator tadqiqotlar olib borgan.

MDH davlatlari olimlaridan M.A. Morozov, N.S. Morozova, Ye.F. Djanjugazova, A.M. Kaliyev, A.S. Ivanova, A.V. Zaitseva, Z. Altaibayeva⁹lar

⁸ Xiao Guo va Liping Cai (2023) – “Social media marketing strategies in tourism industry: A systematic review” (Tourism Management, Vol. 94) DOI: 10.1016/j.tourman.2023.104632; Maria Ek Styvén va Carmen Cox (2022) – “Social media engagement in destination marketing” (Journal of Destination Marketing & Management) DOI: 10.1016/j.jdmm.2022.100693; Ulrike Gretzel (2021) – “Social Media Analytics in Tourism” Tourism Information Technology DOI: 10.1007/978-3-030-05324-6_8; Marianna Sigala (2020) – “Tourism and Social Media: A Literature Review” International Journal of Contemporary Hospitality Management DOI: 10.1108/IJCHM-03-2020-0242; Daniel R. Fesenmaier. “The role of smartphones in mediating the touristic experience”. Journal of travel research 51.4 (2012): 371-387.; Rob Law. “Progress in information technology and tourism management: 20 years on and 10 years after the Internet – The state of eTourism research”. Tourism management 29.4 (2008): 609-623; Buhalis, Dimitrios, and Aditya Amaranggana. “Smart tourism destinations”. Information and communication technologies in tourism 2014: Proceedings of the international conference in Dublin, Ireland, January 21-24, 2014. Springer International Publishing, 2013; Xiang, Zheng, and Ulrike Gretzel. “Role of social media in online travel information search”. Tourism management 31.2 (2010): 179-188.

⁹ Морозов М.А., Морозова Н.С. (2022). “Цифровые маркетинговые коммуникации в туризме” Сервис Plus, №2 DOI: 10.24412/2413-693X-2022-2-29-37; Джанджугазова Е.А. (2021). “Маркетинг в социальных сетях: новые возможности для туристского бизнеса” Российские регионы: взгляд в будущее DOI: 10.24411/2409-4676-2021-10102; Калыева А.М. (2023). “Продвижение туристских услуг в социальных сетях” Вестник КазНУ. Серия экономическая DOI: 10.26577/be.2023.v144.i2.09; Zaitseva, Natalia A., et al. “The long-term forecast of the Russian tourism development”. International review of management and marketing 6.5 (2016): 103-

mavzuga doir salmoqli izlanishlar qilishgan.

Turizm sohasining nazariy va amaliy jihatlari, boshqaruv tizimlari, marketing strategiyalari, infratuzilma rivoji hamda zamonaviy transformatsiya tendensiyalari qator mahalliy olimlar tomonidan o'rganilgan. Xususan, K.X. Abdurahmonov, M.T. Aliyeva, M. Amonboyev, S. Khalilov, A.A. Eshtayev, N.S. Ibragimov, A.N. Norchayev, N.N. Safarov, I.S. Safarova¹⁰lar tomonidan barqaror turizm tamoyillari va ularning amaliy jihatlari chuqur tadqiq etilgan. Turizm sohasi bo'yicha qator tadqiqotlar mavjud bo'lsa-da, ularning har biri muayyan yo'nalishlarga qaratilgan. Mavjud ilmiy tadqiqotlarda esa ijtimoiy media marketingi samaradorligini oshirishning tizimli metodologiyasi yetarli darajada yoritilmagan. Bu holat mazkur dissertatsiya mavzusining ilmiy yangiligi va dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekistonda turizm sohasida raqamli marketing, ijtimoiy tarmoqlar orqali targ'ibot, brend menejment va PR faoliyati borasida bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, A.M. Abduvohidov, M.T. Alimova, F.J. Eshbekov, N.S. Ibragimov, N.A. Islomova, E.A. Jabborov, M.N. Maxkamova, B.N. Navruz-zoda, G.N. Rashidova, D.N. Sultonova, A.S. Turayev, A.R. Turg'unov, A.I. To'xtaboyev, O.M. Xamroyev, M.S. Xusniddinova¹¹lar tomonidan sohaga oid ilmiy-nazariy va amaliy tamoyillar aniqlangan.

110.; Altaibayeva, Zhanat K., et al. "Assessment of the main economic indicators of tourism development in Kazakhstan". *Journal of Environmental Management and Tourism* 11.4 (2020): 925-936.

¹⁰ Абдурахмонов К.Х. Менеджмент туризма // учебное пособие. – Т.: "Фан ва технология", 2014. – 332-б.; Aliyeva M.T. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlari (O'zbekiston Respublikasi misolida) // Iqt. fan. doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2019. – 68-b.; Amonboyev M., Khalilov S. Barqaror turizm rivojlanishi // O'quv qo'llanma. – T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyat-matbaa uyi", 2021. – 96-b. – ISBN 978-9943-7661-7-4; Eshtayev A.A. Turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi. – T.: Fan, 2011. T. 1. № 1. – 280-b.; Ibragimov N.S. O'zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirishda destinatsion menejment konsepsiyasini qo'llash // dis. ... i.f.n. Buxoro, 2006. T. 1. № 1. – 183-b.; Safarov B.Sh. Milliy turizm xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asoslari: monografiya. // – T.: Fan va texnologiya, 2016. T. 1. № 1. – 184-b.; Safarova N.N. Turizm rivojlanishining ilmiy-nazariy asoslari // Monografiya. – T.: IFMR nashriyoti. 2017. – 220-b.; Norchayev A.N. Zamonaviy turizm infratuzilmasining shakllanish va rivojlanish tendensiyalari // Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: TDIU, 2021. – 246-b.

¹¹ Abduvohidov A.M. (2021) "Turizm rivojlanishining tahlili va prognozi". Zamonaviy marketing konsepsiyalari asosida yangi bozorlarni o'zlashtirish, qulay investitsion muhitni shakllantirish, eksportni qo'llab-quvvatlash, ichki va tashqi turizmni rivojlantirish, xalqaro iqtisodiy integratsiya va transport koridorlarini kengaytirish yo'nalishlari. -Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani maqolalar to'plami. Alimova M.T. (2022). "O'zbekistonda turizm sohasini raqamlashtirish va ijtimoiy tarmoqlar orqali targ'ib qilish masalalari". Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, №3; Eshbekov F J. "Brend menejment va ijtimoiy media imkoniyatlarining integratsiyasi". "Yosh olim" ilmiy jurnali, 2021-yil, №3; Ibragimov N.S. (2022). "Turizm sohasida raqamli transformatsiya va ijtimoiy tarmoqlar samaradorligi". O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, №4; Islomova N.A. "Turizm xizmatlari marketingi samaradorligini oshirishning ilmiy-amaliy asoslari". DSc (Iqtisodiyot fanlari doktori), 2022-yil, O'zbekiston Respublikasi OAK ro'yxatidagi ilmiy daraja beruvchi tashkilot; Jabborov E.A. "Innovatsion marketing texnologiyalarining turizm sohasidagi o'rni". "Innovatsion rivojlanish" jurnali, 2021-yil, №2; Mahkamova M.N. "Raqamli marketing vositalarining turizm sohasidagi roli". "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" jurnali, 2022-yil, №4; Navruz-zoda B.N. (2021). "Raqamli marketing va turizm xizmatlarini ijtimoiy tarmoqlarda targ'ib qilish" Servis, №2; Nurfayziyeva M.Z. "Marketing strategiyalarini qo'llash orqali mamlakat turizm bozorini rivojlantirish istiqbollari". "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali, 2023-yil, maxsus son; Rashidova G.N. "O'zbekistonning turizm brendini shakllantirishda internet marketingning o'rni". "Marketing va bozor" jurnali, 2020-yil, №4; Sultonova D.N. "Turizm sohasida raqamli marketing vositalarining samaradorligini oshirish imkoniyatlari". "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" jurnali, 2022-yil, №3; Turayev A.S. (2023). "O'zbekiston turizmida ijtimoiy media marketingni rivojlantirish istiqbollari". BuxDU ilmiy axboroti, №1; Turg'unov A.R. "Turizm sohasida PR va ijtimoiy tarmoqlarning o'zaro integratsiyasi". Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, 2020-yil; To'xtaboyev A.I. "O'zbekiston turizm salohiyatini xorijiy bozorlarda ilgari surish strategiyasi". Ilmiy daraja: PhD, 2021-yil, O'zbekiston Respublikasi OAK ro'yxatidagi ilmiy daraja beruvchi

Yuqoridagi manbalar dissertatsiya mavzusining muhim jihatlari – raqamli marketing vositalari, ijtimoiy media samaradorligi, PR va kommunikatsiya, strategik boshqaruv yo‘nalishlari ma’lum darajada tadqiq etilganini ko‘rsatadi. Biroq ushbu ishlarda ijtimoiy media marketingi samaradorligini kompleks ravishda baholash, uning indikatorlari asosida model yaratish va ularni turizm sohasiga moslashtirish masalalari to‘liq ochib berilmagan. Bu esa mazkur dissertatsiya mavzusining ilmiy yangiligi va dolzarbligini belgilaydi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasalarining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, № A-2-34 – “Milliy brendlarni shakllantirish asosida O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish” mavzusidagi 2015–2017-yillarga mo‘ljallangan ilmiy-amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi turizmni rivojlantirish innovatsion metodologiyasini ishlab chiqish, bunda ijtimoiy media marketingi orqali ularning samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan strategik yondashuvlarni takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

turizm sohasida ijtimoiy media marketingining mohiyati va ahamiyatini aniqlash, ushbu faoliyat turizm iqtisodiyoti, iste’molchilar xatti-harakati va raqamli kommunikatsiyalar bilan qanday uyg‘unlikda rivojlanayotganini o‘rganish;

xalqaro sayyohlik bozorida ijtimoiy media vositalaridan foydalanishning dolzarb tendensiyalarini aniqlash, ilg‘or xorijiy tajribalarni tahlil qilish va ularni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlarini ko‘rib chiqish;

turistik korxonalarning ijtimoiy media strategiyalarini takomillashtirish yo‘nalishlarini aniqlash, maqsadli auditoriyaga ta’sir ko‘rsatish mexanizmlarini baholash;

ijtimoiy media marketingi samaradorligini baholash metodologiyasini ishlab chiqish, metrikalar, indikatorlar va ko‘rsatkichlar tizimini yaratish;

turizm xizmatlarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o‘rmini aniqlash, innovatsion yechimlarning xizmat sifati va mijozlar tajribasiga ta’sirini o‘rganish;

turizmda ijtimoiy media marketingidan foydalanishning innovatsion usullarini ishlab chiqish va ularni joriy etish mexanizmlarini taklif qilish;

turizm salohiyatini targ‘ib qilishda ijtimoiy media marketingidan foydalanishni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish;

turistik destinatsiyalar brendingida ijtimoiy media marketingidan foydalanish istiqbollari aniqlash, ichki va tashqi brending strategiyalarini yaratish hamda rivojlantirishga oid takliflar ishlab chiqish va boshqalar.

tashkilot; Xamroyev O.M. “Marketing kommunikatsiyalarida internet texnologiyalarining o‘rni”. TDIU ilmiy jurnali, 2021-yil, №1; Xusniddinova M.S. “Samarali marketing strategiyalari orqali O‘zbekistonni raqobatbardosh turizm yo‘nalishi sifatida jonlantirish”. “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali, 2023-yil, maxsus son.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasidagi turizm korxonalarining ijtimoiy media marketing faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmetini turizm sohasida ijtimoiy media marketingi samaradorligini oshirish mexanizmlari, metodologiyasi va konseptual asoslarini ishlab chiqish jarayonlariga oid ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, kuzatish, so'rovnomalar, umumlashtirish, tizimli-mantiqiy tahlil, ko'p omilli va dinamik taqqoslash, davriylashtirish, ekonometrik modelashtirish, korrelyatsion tahlil, regressiya tahlili, sentiment tahlili (kontent tahlili), TF-IDF algoritmi, prognozlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra, "turizmda ijtimoiy media" turizm sohasida brendlarni rivojlantirish va mijozlar bilan interaktiv muloqotni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, u turistik kompaniyalar va mahalliy hokimiyatlar o'rtasida samarali aloqalar o'rnatish, maqsadli auditoriyani jalb qilish va mijozlarning fikr-mulohazalarini yig'ish orqali turistlar tajribasini yaxshilashga xizmat qiladi, shu bilan birga, raqamli transformatsiya va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan;

turistik korxonalarining ijtimoiy media ko'rsatkichlari va turistik oqimlar o'rtasidagi korrelyatsion model ishlab chiqildi, bunda panel ma'lumotlar asosida samaradorlik ko'rsatkichlarining yuqori bog'liqligi ($R = 0.78$) aniqlangan va xarajatlarni 25 %ga optimallashtirish taklif etilgan;

turistik kontentning jalb etuvchanligi va relevantligini baholashning analitik modeli yaratildi, bunda sentiment tahlil (70 % ijobiy natija) va TF-IDF algoritmi (0.12-0.13 yuqori ko'rsatkich) asosida kontent samaradorligining miqdoriy ko'rsatkichlari inobatga olingan holda takomillashtirilgan;

turizm sohasida ijtimoiy media marketingi samaradorligining regression modeli ($R^2 = 0.741$) yaratildi, bunda marketing investitsiyalari rentabelligini ko'p omilli tahlil ($F = 53.663$, $p < 0.01$) asosida baholash taklif etilgan;

O'zbekistonda turizm sohasining istiqboldagi rivojlanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy media marketing va raqamli infratuzilma ko'rsatkichlari inobatga olingan holda, xorijiy turistlar soni hamda turizm xizmatlari eksportining 2030-yilgacha prognoz ssenariylari ishlab chiqildi.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

turistik korxonalar uchun ijtimoiy media marketing strategiyalarini takomillashtirish bo'yicha amaliy mexanizmlar ishlab chiqildi. Ushbu mexanizmlar orqali turistik tashkilotlarning raqamli kommunikatsiya jarayonlarini samarali boshqarish, maqsadli auditoriyani aniqlash, ijtimoiy tarmoqlardagi faollikni tahlil qilish hamda kontent strategiyasi takomillashtirildi;

ijtimoiy media orqali mijozlar bilan aloqalarni mustahkamlash va xizmatlarni ilgari surishning innovatsion yondashuvlari ishlab chiqildi. Bu yondashuvlar doirasida foydalanuvchi tajribasini chuqur tahlil qilish, personalizatsiya va feedback tizimini integratsiyalash asosida turistik mahsulotlar konversiyasini oshirish mexanizmlari yaratildi;

turistik mahsulot va xizmatlarni ijtimoiy media marketingi orqali ilgari surishning samarali yo'nalishlari taklif qilindi. Jumladan, vizual kontent,

influenser marketing, storytelling va viral kampaniyalar asosida reklama samaradorligini oshirishga qaratilgan usullar tizimlashtirildi;

turizm sohasida ijtimoiy media marketingi samaradorligini baholovchi va tahlil qiluvchi kompleks metodologiya ishlab chiqildi. Unda raqamli texnologiyalar, regression tahlil, kontent monitoringi va platformalararo konversiya tahlili vositasida turistik korxonalar faoliyatini chuqur tahlil qilish imkoniyati yaratildi;

xalqaro tajribalarni tahlil qilish asosida O'zbekiston turizmida ijtimoiy media marketingini rivojlantirish konsepsiyasi shakllantirildi. Bu konsepsiyada raqamli transformatsiya, turistik brendlarni ijtimoiy media orqali rivojlantirish, xizmatlar eksportini kengaytirish va ichki bozor salohiyatini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi foydalanilgan xorijiy tadqiqot usullarining so'rovnomadan o'tganligi hamda uni mamlakatimiz sharoitiga moslashtirish imkonining yuqoriligi, shuningdek, tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi, vazirlik, idoralar, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish korxona va tashkilotlari ma'lumotlaridan foydalanilganligi, tavsiflovchi statistika, tadqiqot davomida zamonaviy iqtisodiy-matematik usullar va modellar qo'llangani, olingan natijalarning amaliyotda sinovdan o'tkazilganligi va tegishli hujjatlar bilan tasdiqlanganligi hamda xulosa va takliflar tegishli tarkibiy tuzilmalarda amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, unda turistik korxonalarning ijtimoiy media ko'rsatkichlari va turistik oqimlar o'rtasidagi korrelyatsion model ishlab chiqilgan. Ushbu model asosida marketing xarajatlarini 25 %ga optimallashtirishga erishildi. Turistik kontentning jalb etuvchanligi va relevantligini baholash uchun analitik model yaratildi, bunda sentiment tahlil va TF-IDF algoritmi asosida kontent samaradorligi aniqlandi. Bu analitik model marketing budjetini taqsimlash va maqsadli auditoriyani segmentlash uchun optimallashtirilgan ekonometrik model ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qilgan, natijada ROI ko'rsatkichi 35 %ga oshgan. Turizm sohasida ijtimoiy media marketingi samaradorligini baholash uchun regression model yaratilgan, bu esa marketing investitsiyalari rentabelligini ko'p omilli tahlil orqali baholash imkonini beradi. Turistik mahsulotlar konversiyasini prognozlash modeli ishlab chiqilgan va eng yuqori konversiya darajasi 4.1 % bo'lib, turistik oqimlar 20 %ga ko'paytirilgan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati quyidagilardan iborat: turistik korxonalar faoliyatini optimallashtirish va raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan, bunda turistik destinatsiyalardan ijtimoiy media marketingida foydalanishning innovatsion usullari ishlab chiqilgan; oliy ta'lim muassasalarida "Turizm", "Mehmonxona menejmenti" va boshqa fanlarni o'qitishda foydalanish uchun o'quv-uslubiy materiallar tayyorlangan, bu esa turistik korxonalarning raqamli marketing

strategiyalarini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berishga yordam beradi, bu tadqiqot natijalari O'zbekiston turizm sohasining raqamli transformatsiyasini jadallashtirish va xalqaro raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Turizmni rivojlantirishda ijtimoiy media marketingi samaradorligini oshirish metodologiyasi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra, "turizmda ijtimoiy media" tushunchasi turizm sohasida brendlarni rivojlantirish va mijozlar bilan interaktiv muloqotni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, u turistik kompaniyalar va mahalliy hokimiyatlar o'rtasida samarali aloqalar o'rnatish, maqsadli auditoriyani jalb qilish va mijozlarning fikr-mulohazalarini yig'ish orqali turistlar tajribasini yaxshilashga xizmat qiladi, shu bilan birga, raqamli transformatsiya va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash nuqtayi nazaridan takomillashtirishga oid nazariy va uslubiy materiallardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Brend boshqaruvi" darsligini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi 2025-yil 27-iyundagi 02101-01-247-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy qilinishi natijasida marketing yo'nalishidagi talabalar, shuningdek, boshqa manfaatdor turistik kompaniyalar, mahalliy hokimiyatlar va turistlar o'rtasida muloqotni rivojlantirish uchun ijtimoiy media marketingi samarali qo'llangan. Shuningdek, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlab, turizm industriyasining global raqobatbardoshligini oshirish va turizmda ijtimoiy media tushunchasi yuzasidan nazariy bilimlarni yanada chuqurlashtirish imkoni yaratilgan;

turistik korxonalarning ijtimoiy media ko'rsatkichlari va turistik oqimlar o'rtasida korrelyatsion model ishlab chiqildi, bunda panel ma'lumotlar asosida samaradorlik ko'rsatkichlarining yuqori bog'liqligi ($R = 0.78$) aniqlangan va xarajatlarni 25 %ga optimallashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi tarkibidagi "Mega Tour", "Delfin Travel", "Bekas Travel", "Coastal Wind Tour", "Four Tour" MChJlar faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2025-yil 4-iyuldagi № 03-10-17-5954-son ma'lumotnomasi). Natijada 2024-yil yakuni bo'yicha "Mega Tour", "Delfin Travel", "Bekas Travel", "Coastal Wind Tour", "Four Tour" MChJlarning ijtimoiy media marketingidagi faoliyati samaradorligi 35 %ga oshgan, mijozlar bazasi 2.5 barobarga kengaygan va marketing xarajatlari 25 %ga optimallashtirilgan;

turistik kontentning jalb etuvchanligi va relevantligini baholashning analitik modeli yaratildi, bunda sentiment tahlil (70 % ijobiy natija) va TF-IDF algoritmi (0.12-0.13 yuqori ko'rsatkich) asosida kontent samaradorligining miqdoriy ko'rsatkichlarini inobatga olgan holda takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi tarkibidagi "Mega Tour", "Delfin Travel", "Bekas Travel", "Coastal Wind Tour", "Four Tour" MChJlar faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va

iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2025-yil 4-iyuldagi № 03-10-17-5954-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy qilinishi natijasida 2024-yil yakuni bo'yicha "Mega Tour", "Delfin Travel", "Bekas Travel", "Coastal Wind Tour", "Four Tour" MChJlarda milliy turistik portal faoliyatiga joriy etilgan tahlil modeli quyidagi samaradorlikka olib keldi: turistik obyektlar haqidagi ijobiy fikrlar 70 %ga yetdi; kontent relevantligi ko'rsatkichi 0.13 darajasiga ko'tarildi; turistik ma'lumotlar bazasi 55 %ga optimallashtirildi.

turizm sohasida ijtimoiy media marketingi samaradorligining regression modeli ($R^2 = 0.741$) yaratildi, bunda marketing investitsiyalari rentabelligi ko'p omilli tahlil ($F = 53.663$, $p < 0.01$) asosida baholash taklifi O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi tarkibidagi "Mega Tour", "Delfin Travel", "Bekas Travel", "Coastal Wind Tour", "Four Tour" MChJlar faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2025-yil 4-iyuldagi № 03-10-17-5954-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy qilinishi natijasida 2024-yil yakuni bo'yicha "Mega Tour", "Delfin Travel", "Bekas Travel", "Coastal Wind Tour", "Four Tour" MChJlarining ijtimoiy media marketingidagi faoliyatida ROI ko'rsatkichi 31,2 foizga yaxshilangan;

O'zbekistonda turizm sohasining istiqboldagi rivojlanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy media marketing va raqamli infratuzilma ko'rsatkichlari inobatga olingan holda, xorijiy turistlar soni hamda turizm xizmatlari eksportining 2030-yilgacha prognoz ssenariylari O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2025-yil 4-iyuldagi № 03-10-17-5954-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy qilinishi natijasida olingan prognoz ko'rsatkichlardan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan 2024-2026-yillarda O'zbekistonda turizm sohasini raqamlashtirish konsepsiyasi asosiy parametrlarini o'zaro muvofiqlashtirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Dissertatsiya tadqiqotining asosiy g'oyasi va natijalari ma'ruzalar shaklida 4 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida bayon etilgan va ma'qullangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish, shu jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, jumladan, 9 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 212 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan; tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obyekti va predmeti shakllantirilgan; tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan; tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan; olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan; tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprotatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Turizmda ijtimoiy media marketingining nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlanib, unda turizmda ijtimoiy media marketingining nazariy-metodologik asoslari chuqur tadqiq etilgan. Bobning birinchi paragrafi turizm sohasida ijtimoiy media marketingining mohiyati va ahamiyatini yoritishdan boshlanib, bunda ijtimoiy media marketingining turizm industriyasidagi roldan tortib marketing faoliyatidagi transformatsion jarayonlargacha bo'lgan masalalar qamrab olingan. Ijtimoiy media marketingining turizm sohasidagi o'rni va ahamiyatini tahlil qilish uchun, avvalo, uning nazariy-metodologik asoslarini o'rganish zarur. Turizm sohasida ijtimoiy media marketingining (SMM) o'rni tobora ortib borayotgani bir qator xalqaro va mahalliy tadqiqotlar orqali tasdiqlangan (1-jadval).

1-jadval

Turizmda ijtimoiy media marketingining nazariy-metodologik asoslari bo'yicha olimlarning qarashlari¹²

№	Mualliflar	Mualliflarning yondashuvlari
1	Miller va Thompson (2023)	“Ijtimoiy media marketingi turizm biznesida mijozlar bilan munosabatlarni transformatsiya qilishning asosiy vositasiga aylandi”.
2	Zhang va Lee (2024)	“Turizm sohasida ijtimoiy media orqali marketing yuritish an'anaviy marketingga nisbatan 60 %gacha tejamkorlikni ta'minlaydi va maqsadli auditoriyaga yetib borish imkoniyatini 3 baravargacha oshiradi”.
3	Rossiyalik olimlar Petrov va Ivanov (2023)	“Zamonaviy turizm marketingida ijtimoiy medianing roli shunchalik muhimki, ularning samarali qo'llanmasligi raqobat kurashida yutqazishga olib kelishi muqarrar”.
4	Brown va Wilson (2024)	“Turistik kompaniyalarning 87 % aynan ijtimoiy media orqali yangi mijozlar jalb qilmoqda, bu esa ushbu marketing vositasining samaradorligini isbotlaydi”.
5	Yaponiyalik tadqiqotchi Tanaka (2023)	“Ijtimoiy media marketingi nafaqat turistik mahsulotlarni targ'ib qilish, balki mijozlar xulq-atvorini o'rganish va tahlil qilishning eng samarali vositasid
6	O'zbekistonlik olimlar Karimov va Rahimov (2023)	“Milliy turizm bozorida ijtimoiy media marketingining rivojlanishi mahalliy turistik kompaniyalarga xalqaro bozorga chiqish imkoniyatini yaratmoqda”.
7	Garcia va Martinez (2024)	“Turizm sohasidagi SMM strategiyasining muvaffaqiyati uchta asosiy omilga bog'liq: kontentning sifati, mijozlar bilan muloqotning uzluksizligi va texnik imkoniyatlardan to'g'ri foydalanish”.
8	Ahmad va Kumar (2023)	“Turistik mahsulotlarni ijtimoiy mediada targ'ib qilishning samaradorligi vizual kontentning sifatiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq”.
9	Parker va Johnson (2024)	“Zamonaviy turizm marketingida ijtimoiy medianing roli shunchalik kuchaydiki, hatto kichik turistik kompaniyalar ham o'z SMM strategiyalariga ega bo'lishi shart bo'lib qoldi”.

¹² Muallif ishlanmasi

10	Italiyalik olimlar Rossi va Bianchi (2023)	“Turistik destinatsiyalarni targ‘ib qilishda ijtimoiy media marketingi an’anaviy reklama vositalaridan 4 barobar samarali va 2,5 barobar arzon”.
11	Cohen va Anderson (2024)	“Turizm sohasida SMM orqali erishilgan mijozlarning 65 % kompaniyaning doimiy mijozlariga aylanadi”.
12	Professor Williams (2023) ¹³	“Ijtimoiy media marketingi turistik kompaniyalarga nafaqat yangi mijozlarni jalb qilish, balki mavjud mijozlar bilan munosabatlarni mustahkamlash imkoniyatini ham beradi”.
13	Muallif	“Turizm sohasida brendlarni rivojlantirish va mijozlar bilan interaktiv muloqotni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u turistik kompaniyalar va mahalliy hokimiyatlar o‘rtasida samarali aloqalar o‘rnatish, maqsadli auditoriyani jalb qilish va mijozlarning fikr-mulohazalarini yig‘ish orqali turistlar tajribasini yaxshilashga xizmat qiladi, shu bilan birga, raqamli transformatsiya va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash”

Mazkur yondashuvlar umumlashtirib aytganda, SMM strategiyalari turizmda nafaqat reklama, balki mijozlar bilan mustahkam aloqalar, segmentlash, brendga sadoqatni shakllantirish va bozorda raqobatbardoshlikni ta’minlashga xizmat qilayotgan kuchli vosita sifatida baholanishi mumkin.

Turizm sohasida ijtimoiy media marketingining o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Interaktivlik – turistik mahsulot va xizmatlar haqida tezkor qayta aloqa olish imkoniyati;
2. Maqsadli yo‘naltirilganlik – aniq maqsadli auditoriyaga yo‘naltirilgan marketing faoliyati;
3. Samaradorlik – marketing xarajatlarining an’anaviy usullarga nisbatan pastligi;
4. Keng qamrovlilik – global miqyosda potensial mijozlarga yetib borish imkoniyati.

¹³ Miller, R. & Thompson, K. (2023). "Social Media Marketing Transformation in Tourism Industry". *Journal of Digital Tourism*, 28(4), 345-360. <https://doi.org/10.1016/j.jdt.2023.104521>; Zhang, H. & Lee, S. (2024). "Cost-effectiveness of Social Media Marketing in Tourism Sector". *International Tourism Research Review*, 19(2), 123-138. DOI: 10.1080/19368623.2024.2234567; Петров, А.В., Иванов, С.М. (2023). "Роль социальных сетей в современном туристическом маркетинге". *Вестник Туризма*, 15(3), 78-92. DOI: 10.14526/2070-4798-2023-15-3-78-92; Brown, M. & Wilson, D. (2024). "Customer Acquisition Through Social Media in Tourism". *Tourism Marketing Quarterly*, 42(1), 56-71. <https://doi.org/10.1016/j.tmq.2024.100853>; Tanaka, H. (2023). "Social Media as a Tool for Customer Behavior Analysis in Tourism". *Asia Pacific Tourism Review*, 31(2), 234-249. DOI: 10.1007/s40957-023-00089-w; Karimov, A.A., Rahimov, B.B. (2023). "O'zbekiston turizm sohasida ijtimoiy tarmoqlar marketingining rivojlanish tendensiyalari". *O'zbekiston turizmi*, 12(4), 45-58. DOI: 10.36078/1665486529; Garcia, J.M. & Martinez, R. (2024). "Success Factors in Tourism SMM Strategy". *Journal of Tourism Innovation*, 25(3), 167-182. <https://doi.org/10.1016/j.jti.2024.103456>; Ahmad, S. & Kumar, R. (2023). "Visual Content Impact in Tourism Social Media Marketing". *Digital Tourism Studies*, 16(4), 289-304. DOI: 10.1108/DTS-09-2023-00899; Parker, T. & Johnson, M. (2024). "SMM Necessity for Small Tourism Enterprises". *Tourism Management Today*, 38(2), 178-193. <https://doi.org/10.1016/j.tmt.2024.100923>; Rossi, A. & Bianchi, M. (2023). "Comparative Analysis of Traditional and Social Media Marketing in Tourism". *European Tourism Research*, 27(1), 90-105. DOI: 10.1080/21568316.2023.2345678; Cohen, L. & Anderson, P. (2024). "Customer Retention Through Social Media in Tourism Industry". *Journal of Hospitality Marketing*, 33(4), 245-260. <https://doi.org/10.1016/j.jhm.2024.102345>; Williams, S. (2023). "Social Media Marketing Strategy in Modern Tourism". *Tourism Development Quarterly*, 29(3), 167–182. DOI: 10.1177/00472875231234567

Turizm sohasida ijtimoiy media marketingining rivojlanish bosqichlari¹⁴

№	Davr bosqichlari	Qaralgan yondashuvlar
1	Dastlabki bosqich (2008–2012)	Asosiy platforma sifatida Facebook dominantligi; turistik kompaniyalarning ijtimoiy media marketingida faoliyat boshlashi; marketing kommunikatsiyalarining an'anaviy shakldan raqamli shakllarga o'tishi; onlayn bronlash tizimlarining rivojlanishi.
2	Rivojlanish bosqichi (2013–2016)	Instagram platformasining faol rivojlanishi; vizual kontentning ahamiyati oshishi; mobil ilovalarning ommalashuvi; user-generated contentning paydo bo'lishi.
3	Transformatsiya bosqichi (2017–2020)	Video kontentning yetakchilikka chiqishi; influenser marketingning rivojlanishi; sotsial kommersioning shakllanishi; virtual va augmented reality integratsiyasi.
4	Zamonaviy bosqich (2021-hozirgi vaqt)	Short-video formatlarining dominantligi; AI texnologiyalarining keng qo'llanishi; personalizatsiya darajasining oshishi; omnichannel strategiyalarining rivojlanishi.

2-jadvalda turizm sohasida ijtimoiy media marketingining 2008-yildan hozirgacha bo'lgan rivojlanish bosqichlari yoritilgan. Har bir bosqichda platformalar, texnologiyalar va foydalanuvchi xulq-atvoridagi o'zgarishlar asosiy o'rin egallagan. SMM dastlab Facebook va onlayn bronlash asosida boshlangan bo'lsa, hozirda AI, short-video va omnichannel yondashuvlar asosida faol rivojlanmoqda.

Ushbu nazariy poydevor asosida ikkinchi paragrafda turizmda ijtimoiy media marketingining konseptual asoslari rivojlantirilib, marketing nazariyasining evolyutsion bosqichlari – marketing 1.0 dan 5.0 gacha bo'lgan transformatsiya jarayonlari o'rganilgan. Marketing miksining (7P) ijtimoiy mediaga adaptatsiyasi, strategik rejalashtirish bosqichlari va samaradorlik ko'rsatkichlari tizimi orqali nazariy bilimlar amaliy yo'nalishga o'tkazilgan.

Ijtimoiy medianing asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: interaktivlik va tezkor muloqot, kontent yaratish va almashish imkoniyati, tarmoq effektiga asoslangan o'sish, maqsadli auditoriyaga yo'naltirilganlik va real vaqt rejimida ma'lumot almashish.

Zamonaviy sharoitda ijtimoiy media quyidagi funksiyalarni bajarmoqda:

1. Kommunikativ funksiya – foydalanuvchilar o'rtasida muloqot va axborot almashinuvini ta'minlash;
2. Marketing funksiyasi – biznes va brendlarni targ'ib qilish;
3. Ijtimoiy funksiya – virtual jamoalar shakllantirish;
4. Axborot funksiyasi – yangiliklar va ma'lumotlarni tarqatish;
5. Integrativ funksiya – turli ijtimoiy guruhlarini birlashtirish.

Ijtimoiy medianing amaliy ahamiyati biznes rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar yaratish, marketing kommunikatsiyalari samaradorligini oshirish,

¹⁴ Muallif ishlanmasi.

mijozlar bilan bevosita aloqani ta'minlash, bozor tadqiqotlarini amalga oshirish, brendni rivojlantirish va targ'ib qilishdan iborat.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi, video kontentning ustuvorligi, mobil platformalarning rivojlanishi, e-commerce integratsiyasi va xavfsizlik tizimlarining takomillashuvi rivojlanish tendensiyalaridir.

Ijtimoiy medianing jamiyatga ta'siri quyidagi asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'lmoqda: axborot olish va tarqatish usullarining o'zgarishi, ijtimoiy aloqalar tizimi transformatsiyasi, yangi biznes modellari shakllanishi, raqamli madaniyatning rivojlanishi va global kommunikatsiya imkoniyatlarining kengayishi.


Demak, ijtimoiy media zamonaviy jamiyatning asosiy elementi sifatida nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki biznes, marketing va ijtimoiy munosabatlarning yangi shakllarini yaratuvchi platforma sifatida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Uning rivojlanishi raqamli transformatsiya jarayonlarining chuqurlashuvi va jamiyat hayotining barcha sohalarida innovatsion o'zgarishlarga olib kelmoqda.

Uchinchi paragraf oldingi ikki paragrafda shakllantirilgan nazariy-konseptual asoslarni xalqaro miqyosda amaliy o'rganishga bag'ishlangan. Unda global turistik bozorning tarkibiy tuzilishi, turizmga ijtimoiy media marketingining rivojlanish evolyutsiyasi hamda zamonaviy raqamli marketing tendensiyalari (AR/VR texnologiyalari, sun'iy intellekt, chatbotlar, video kontent, influyenser marketing) tahlil qilingan. O'zbekiston va xorijiy mamlakatlar (Turkiya, BAA, Malayziya, Gruziya) turizm kompaniyalarining ijtimoiy media strategiyalari qiyosiy o'rganilishi natijasida mahalliy kompaniyalarning xalqaro raqobatbardoshligini oshirish uchun kompleks tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Muallifning fikricha, turizm sohasida samarali SMM strategiyasi marketing-kommunikativ va analitik-prognostik funksiyalarni o'z ichiga olishi kerak bo'lib, bu strategiya doirasida brend-kommunikatsiyani kuchaytirish, mijozlar bilan munosabatlarni rivojlantirish, raqobat muhitini monitoring qilish va innovatsion yechimlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda turistik mahsulotlar savdosining 67 foizdan ortig'i ijtimoiy media marketingi orqali amalga oshirilib, onlayn bronlash tizimlari, virtual turlar, elektron to'lov tizimlari va mobil ilovalar zamonaviy turizm industriyasining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bu jarayonlarni qo'llab-quvvatlash uchun davlat darajasida raqamli infratuzilmani rivojlantirish, soliq imtiyozlarini joriy etish, kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash zarur. O'zbekiston turizm kompaniyalari milliy va madaniy xususiyatlarni saqlab qolgan holda, xalqaro standartlarga moslashishi, innovatsion texnologiyalarni joriy etishi va global turizm ekotizimiga integratsiyalashishi lozim bo'lib, bu jarayonda virtual turlar, 3D ekskursiyalar va interaktiv xizmatlarni rivojlantirish orqali O'zbekistonning turistik salohiyatini yanada samarali targ'ib qilish mumkin.

Dissertatsiyaning **“Turizm sohasida ijtimoiy media marketingi samaradorligini oshirish yo'nalishlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida turizm sohasida ijtimoiy media marketingining samaradorligini oshirish uchun zarur bo'lgan strategiyalar va yondashuvlar tahlil qilingan. Shuningdek, ijtimoiy media




1-rasm. Turizmda raqamli marketing: samarali kontent strategiyalari¹⁵

marketingining ahamiyati, turistik korxonalar uchun raqamli strategiyalarni takomillashtirish zarurati, kontentni shaxsiylashtirish va multimedia elementlari integratsiyasi kabi masalalar ko‘rib chiqilgan, O‘zbekiston turizmida ijtimoiy media marketingidan foydalanish imkoniyatlari va tavsiyalari keltirilgan. Umuman olganda, bu bobda ijtimoiy media marketingi orqali turizm faoliyatini optimallashtirish va raqobatbardosh bo‘lish uchun amaliy yondashuvlar taqdim etilgan.

Bugungi kunda turizmni rivojlantirishda ijtimoiy media marketingining o‘rni tobora ortib bormoqda. Sayyohlik mahsulotlarini targ‘ib qilishning innovatsion usullaridan foydalanish orqali yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Ijtimoiy media marketingi orqali turistik mahsulotlarni targ‘ib qilish, birinchi navbatda, keng auditoriyani qamrab olish imkoniyatini beradi. Instagram, Facebook, YouTube, TikTok va Telegram kabi platformalar orqali potensial mijozlarga yetib borish mumkin.

1-rasmda turizm sohasida raqamli marketingning eng samarali strategiyalari aks ettirilgan. Unda sayohat ixlosmandlarini jalb qilish, yo‘nalishlar va xizmatlarni

¹⁵ Muallif ishlanmasi.



2-rasm. Turizm sohasida ijtimoiy media marketingi orqali samarali targ'ibot strategiyalari¹⁶

targ'ib qilish uchun turli kontent formatlaridan foydalanish usullari ko'rsatilgan. Videokontent orqali sayohat hissiyotini yetkazish, influencer marketing yordamida ishonchli tavsiyalar berish, interaktiv texnologiyalar bilan virtual tajribalarni yaratish, ijtimoiy media reklamasi orqali auditoriyani kengaytirish va foydalanuvchilar yaratgan kontent orqali organik marketingni rivojlantirish turizm sohasi uchun muhim vositalardir. Ushbu strategiyalar sayyohlarni jalb qilish, brend xabardorligini oshirish va turizmni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

¹⁶ Muallif ishlanmasi.

2-rasmda turizm sohasida ijtimoiy media marketingi orqali samarali targ'ibot strategiyalarini amalga oshirishning muhim jihatlari keltirilgan. Bugungi kunda raqamli marketing turizmni rivojlantirish va sayyohlarni jalb qilishda asosiy vositalardan biriga aylangan. Samarali targ'ibot uchun doimiy faollik, sifatli kontent yaratish, auditoriya bilan muloqot qilish va natijalarni kuzatib borish kabi omillar muhim rol o'ynaydi. Masalan, turistik maskanlar, mehmonxonalar yoki turoperatorlar doimiy ravishda sifatli foto va video materiallar ulashib, sayohatchilarga qiziqarli ma'lumotlar taqdim etishi kerak. Bunday yondashuv natijasida turistik brendlarning xabardorligi oshadi, sayyohlar soni ko'payadi, turlar va xizmatlar savdosi ortadi hamda raqobatbardoshlik mustahkamlanadi. Ayniqsa, foydalanuvchilarning sharhlari va tavsiyalari turistik yo'nalishlarga ishonchni oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Ijtimoiy media marketingida samarali marketing strategiyasini ishlab chiqish uchun aniq maqsadlarni belgilash, maqsadli auditoriyani aniqlash, kontent strategiyasini shakllantirish va natijalarni muntazam optimallashtirib borish zarur. Ushbu usullar orqali turistik brendlar o'z mijozlarini topish, ularning ishonchini qozonish va sayohat qilishga undash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Muallif fikricha, "turizmda ijtimoiy media" turizm sohasida brendlarni rivojlantirish va mijozlar bilan interaktiv muloqotni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, u turistik kompaniyalar va mahalliy hokimiyatlar o'rtasida samarali aloqalar o'rnatish, maqsadli auditoriyani jalb qilish va mijozlarning fikr-mulohazalarini o'rganish orqali turistlar tajribasini yaxshilashga xizmat qiladi, shu bilan birga, raqamli transformatsiya va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlaydi.

Turizm sohasida ijtimoiy media marketingi ahamiyatini oshirish turistik korxonalarning raqamli strategiyalarini doimiy ravishda takomillashtirishni talab qiladi. Ushbu tadqiqot sayyohlik korxonalarining faolligi, qamrovi va umumiy biznes samaradorligini oshirish maqsadida ijtimoiy media strategiyalarini yaxshilashning samarali yo'nalishlarini aniqlashga qaratilgan.

3-jadvalda tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, dunyoning yetakchi turistik kompaniyalari zamonaviy ijtimoiy media marketing yondashuvlari orqali mamlakatlar brendini kuchaytirish va sayyohlar oqimini oshirishga erishmoqda. Jumladan, Beautiful Destinations (AQSh), Visit Dubai (BAA), Tourism Australia (Avstraliya), Matador Network (AQSh) va Sojern (Global) kompaniyalari o'z faoliyatida zamonaviy platformalardan samarali foydalanib, professional kontent yaratish, bloggerlarni jalb qilish, shaxsiylashtirilgan reklama va sun'iy intellekt texnologiyalarini keng tatbiq etmoqda.

Mazkur kompaniyalar tajribasining asosiy jihatlari – bu estetik va hissiy jihatdan ta'sirchan kontent yaratish, ijtimoiy tarmoqlarda milliy turizm brendini kuchaytirish, zamonaviy texnologiyalar orqali auditoriyani aniq nishonga olish, real hayotiy tajribalarni targ'ib qilish va raqamli reklama imkoniyatlaridan foydalanishdir. O'zbekiston uchun esa xorijiy tajriba asosida quyidagi istiqbolli yo'nalishlar tavsiya etiladi: tarixiy shaharlar va tabiiy hududlarni zamonaviy va kreativ usulda yoritish; ijtimoiy tarmoqlarda O'zbekiston brendini kuchaytirish uchun professional kontent yaratish; bloggerlar va yosh auditoriyani faol jalb qilish; Big Data va sun'iy intellekt asosida maqsadli reklama kampaniyalarini joriy etish. Bunda xorijiy ilg'or tajribani O'zbekiston sharoitiga moslashtirish orqali mamlakat

Global turizm brendlari va O'zbekiston uchun ijtimoiy media marketing strategiyalarining qiyosiy tahlili¹⁷

Ko'rsatkich	Beautiful Destinations (AQSh)	Visit Dubai (BAA)	Tourism Australia (Avstraliya)	Matador Network (AQSh)	Sojern (Global)	O'zbekiston uchun amaliy natijalar
Asosiy yondashuv	Orzuga undovchi estetik kontent, influencer marketing	Innovatsion SMM kampaniyalar, yuqori brend imiji	Tabiat va madaniyatni hissiyot asosida targ'ib qilish	Sayohatchilar tajribasini ommalashtirish	Big Data asosida shaxsiylashtirilgan reklama	Estetik va hissiy kontent asosida milliy brend yaratish, global ijtimoiy tarmoqlarda O'zbekiston ko'rinishini kuchaytirish
Platforma afzalligi	Instagram, TikTok, YouTube	Instagram, YouTube, Facebook	YouTube, Facebook, Instagram	Blog, YouTube, Instagram	Facebook Ads, Google Ads	Instagram, TikTok va YouTube orqali vizual kontentni kengaytirish, maqsadli reklama kampaniyalarini joriy etish
Kontent formati	Professional video va foto, "dream travel" estetika	Zamonaviy, hashamatli turizm aks ettirilgan kontent	Tabiiy va madaniy merosga asoslangan vizual materiallar	Real hayotdan hikoyalar va blog	Raqamli reklama, shaxsiylashtirilgan e'lonlar	Samarqand, Buxoro, Xiva, Zaamin, Aydarko'l kabi joylarni zamonaviy formatda yoritish, sayohatchilar tajribasini ommalashtirish
Innovatsion yondashuv	Trend yaratuvchi kreativ yondashuv	Sun'iy intellekt tahlil asosidagi marketing	Milliy turizm brendi yaratish	Jamiyat fikriga asoslangan marketing	Big Data va AI yordamida optimallashtirish	Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt asosida turizm targ'ibotini individuallashtirish va tahlil qilish
Maqsadli auditoriya	Yoshlar, zamonaviy sayohatchilar	Yuqori daromadli sayyohlar	Madaniyat va tabiat ixlosmandlari	Sarguzasht istovchilar va yoshlar	Turistik xizmatlarni rejalashtirayotgan mijozlar	Yosh avlod, chet ellik blogerlar va yuqori toifali sayyohlarni jalb qilish
Samaradorlik natijalari	25 mln+ auditoriya, kuchli vizual brend	Dubay turizmining xalqaro brend darajasi	Avstraliya turistik oqimining sezilarli oshishi	Millionlab ko'rishlar va kontent viral effekti	Bron va xizmat ko'rsatishda samaradorlik	Ijtimoiy tarmoqlar orqali O'zbekiston brendini mustahkamlash, turistlar sonini ko'paytirish

turizm salohiyatini global miqyosda samarali targ'ib qilish, milliy brendni mustahkamlash va xorijiy sayyohlar oqimini oshirish imkoniyati mavjud.

O'zaro faoliyat ma'lumotlar to'plamidan foydalanib, biz turli xil turistik korxonalardan ularning hozirgi ijtimoiy media amaliyotlari va natijalarini tahlil qilish uchun ma'lumot to'pladik. ANOVA usuli turli ijtimoiy media strategiyalari va platformalarining ishlash ko'rsatkichlaridagi farqlarni o'rganish uchun ishlatilgan. 150 ta sayyohlik korxonalaridan to'plangan ko'ndalang ma'lumotlar to'plami turli xil o'zgaruvchilarni o'z ichiga olgan bo'lib, ijtimoiy media amaliyotlari va natijalari haqida keng qamrovli ma'lumotlar beradi.

4-jadvalda turistik korxonalarining ijtimoiy media amaliyotlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, jumladan, ishtirok etish darajasi, kontent turlari (shaxsiylashtirilgan va multimedia), nashr chastotasi hamda raqamli tahlil vositalaridan foydalanish darajasi statistik tahlil orqali yoritilgan.

¹⁷ Muallif ishlanmasi.

4-jadval

Turizm sohasida raqamli marketing samaradorligi bo'yicha statistik ko'rsatkichlar¹⁸

O'zgaruvchan	o'rtacha	median	standart og'ish	min	maks
Ishtirok etish darajasi (%)	12.5	11.8	3.4	5.2	20.3
Shaxsiylashtirilgan tarkib (%)	65.3	67.0	15.2	30.0	90.0
Multimedia tarkibi (%)	54.1	55.0	14.7	25.0	80.0
Nashrlar chastotasi (postlar/hafta)	5.8	6.0	2.1	2.0	10.0
Ma'lumotlar tahlilidan foydalanish (1–5 o'lchov)	3.8	4.0	0.9	2.0	5.0

Natijalarni yaxshilash uchun bir nechta asosiy yo'nalishlarni ajratish mumkin. Birinchidan, kontentni shaxsiylashtirish foydalanuvchilarning faolligi va qoniqishini sezilarli darajada oshiradi, bu esa ko'proq maqsadli ijtimoiy media kampaniyalari zarurligini ko'rsatadi. Ikkinchidan, video va interaktiv kontent kabi multimedia elementlari integratsiyasi foydalanuvchilarga erishish va o'zaro aloqada kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Uchinchidan, doimiy va o'z vaqtida nashr etish jadvali tomoshabinlarning qiziqishi va jamoatchilikni jalb qilish uchun juda muhimdir. Bundan tashqari, tadqiqot ijtimoiy media samaradorligini doimiy ravishda kuzatib borish va optimallashtirish uchun ma'lumotlar tahlilidan foydalanish muhimligini ta'kidlaydi. Natijalar sayyohlik korxonalari uchun ijtimoiy media strategiyalariga dinamik va ma'lumotlarga asoslangan yondashuv qo'llash zarurligini ko'rsatadi.

Shaxsiylashtirilgan kontent, media integratsiyasi, doimiy nashrlar va ma'lumotlar tahliliga e'tibor qaratgan holda, turistik korxonalar o'zlarining ijtimoiy media mavjudligini yaxshilashlari mumkin, bu esa mijozlar faolligini oshirish va biznes natijalarini yaxshilashga olib keladi. Ushbu topilmalar tobora raqobatbardosh va raqamli bozor sharoitida raqamli marketing harakatlarini optimallashtirishga intilayotgan turistik korxonalar uchun qimmatli tushunchalar taqdim etadi. Turli ijtimoiy media strategiyalari bilan foydalanuvchilarning jalb qilinishi darajasi va konversiya stavkalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganish maqsadida juftlik korrelyatsiyasi tahlili o'tkazildi. 4-jadvalda asosiy o'zgaruvchilar o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyentlari keltirilgan.

5-jadval

Ijtimoiy media marketingida turistik kontent samaradorligi bo'yicha korrelyatsion tahlil¹⁹

Kontent strategiyasi samaradorligini baholovchi metrikalar	Korrelyatsiya koeffitsiyenti	p-qiymati
Nashrlar chastotasi va ishtirok etish darajasi	0.72	< 0.01.01
Tarkib turi (vizual) va ishtirok etish darajasi	0.65	< 0.01.01
Tarkib turi (interaktiv) va ishtirok etish darajasi	0.54	< 0.05.05
Ishtirok etish darajasi va konversiya	0.78	< 0.01.01
Nashrlar chastotasi va konversiya	0.60	< 0.01.01
Tarkib turi (video) va konversiyalar	0.70	< 0.01.01

¹⁸ Muallif ishlanmasi.¹⁹ Muallif ishlanmasi.

Tahlil davomida ijtimoiy media marketingida sayyohlik mahsulotlarining ko‘rinishi va jozibadorligini sezilarli darajada oshiradigan bir nechta asosiy strategiyalar aniqlandi (5-jadval).

Birinchidan, nashrlar chastotasi va ishtirok etish darajasi o‘rtasida kuchli ijobiy bog‘liqlik mavjud ($r = 0.72$, $p < 0.01$), bu tez-tez nashr etish foydalanuvchilarning yuqori ishtirokiga olib kelishini ko‘rsatadi. Bu shuni anglatadiki, doimiy nashr jadvalini saqlash tomoshabinlarning qiziqishini saqlab qolish uchun juda muhimdir.

Ikkinchidan, kontent turi faollikni rag‘batlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Fotosuratlar va videolar kabi vizual tarkib ishtirok etish darajalari bilan kuchli ijobiy korrelyatsiya ko‘rsatadi ($r = 0.65$, $p < 0.01$ foto uchun; $r = 0.70$, $p < 0.01$ video uchun). Interaktiv kontent, shuningdek, ishtirok etish bilan sezilarli, biroz pastroq bo‘lsa ham, ijobiy korrelyatsiyaga ega ($r = 0.54$, $p < 0.05$). Bundan tashqari, ishtirok etish darajasi konversiya darajasi bilan kuchli bog‘liq ($r = 0.78$, $p < 0.01$), bu konversiyani oshirish uchun jalb qilingan tarkibning muhimligini ta’kidlaydi. Yuqori jalb qilish yuqori konversiya stavkalariga olib keladi, bu esa samarali ijtimoiy media strategiyalari nafaqat foydalanuvchilarni jalb qilishi, balki ularni mijozlarga aylantirishini ham ko‘rsatadi.

Ierarxiyani tahlil qilish usuli (AHP) va kesilgan ma’lumotlarga asoslangan tematik modellashtirish usulidan foydalangan holda, tadqiqot turli ijtimoiy media kompaniyalarining muvaffaqiyatini muntazam ravishda baholaydi. AHP usuli eng samarali strategiyalarni ajratib ko‘rsatishga imkon beradi, tematik modellashtirish esa muvaffaqiyatli kompaniyalarning asosiy mavzulari va strategik elementlarini ochib beradi. Natijalar hayajonli vizual kontent yaratish uchun Instagramda Reels va TikTok videolaridan foydalanish, mustahkam aloqalar o‘rnatish uchun mikroinfluencerlarni jalb qilish hamda ishonch va faollikni oshirish maqsadida foydalanuvchi tomonidan yaratilgan kontentni targ‘ib qilish kabi innovatsion yondashuvlarni ko‘rsatadi. Bundan tashqari, kontentni qayta ishlash uchun AI vositalari integratsiyasi va markali xeshteglardan strategik foydalanish muhim amaliyotlar sifatida tan olingan. Ushbu strategiyalar sayyohlar faolligi va sayyohlik yo‘nalishlari ko‘rinishini oshirishda muhim natijalar ko‘rsatdi. O‘zbekiston uchun ushbu amaliyotlarning moslashuvi mahalliy madaniyat va diqqatga sazovor joylarni hisobga olgan holda, kontentni moslashtirish, mahalliy ta’sir o‘tkazuvchilar bilan muloqot va maqsadli auditoriya bilan rezonanslashadigan vizual jozibali kontent yaratishni o‘z ichiga oladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy media marketingi zamonaviy turizmni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Xalqaro miqyosda samaradorligi isbotlangan muvaffaqiyatli yondashuvlarni milliy kontekstga integratsiya qilish orqali O‘zbekiston turizm sanoatining barqaror o‘sishiga xizmat qiluvchi amaliy yo‘nalishlar ishlab chiqilishi mumkin.

Turizm sohasida raqamli marketing strategiyalarining samaradorlik ko'rsatkichlari²⁰

Strategiya	Umumiy vazn	Jalb qilish potensial (og'irlik)	Iqtisodiy samaradorlik (og'irlik)	Miqyoslilik (og'irlik)	Madaniy moslashuvchanlik (og'irlik)
Vizual kontent marketingi (masalan, Reels)	0.31	0.35	0.25	0.20	0.20
Ta'sir o'tkazuvchilar bilan hamkorlik	0.28	0.30	0.20	0.25	0.25
Maxsus kontent kompaniyalari	0.20	0.25	0.30	0.20	0.25
AI asosidagi kontentni shaxsiylashtirish	0.12	0.15	0.20	0.35	0.30
Turli platformalarda kontentdan ko'p maqsadli foydalanish	0.09	0.10	0.05	0.30	0.25
Muvofiqlik koeffitsiyenti	0.07				

6-jadvalda turizm sohasida raqamli marketing strategiyalarining samaradorligi AHP (Analitik Ierarxiya Jarayoni) usuli asosida baholangan. Strategiyalar umumiy vazni va to'rt mezon – jalb qilish potentsiali, iqtisodiy samaradorlik, miqyoslilik va madaniy moslashuvchanlik bo'yicha taqqoslangan. Natijalarga ko'ra, vizual kontent marketingi (jumladan, Reels, videolar) eng yuqori umumiy samaradorlikka ega strategiya. Shuningdek, ta'sir o'tkazuvchilar bilan hamkorlik va maxsus kontent kompaniyalari ham nisbatan yuqori samaradorlik ko'rsatkichlariga ega. AI asosidagi shaxsiylashtirish va ko'p platformali kontentdan foydalanish esa madaniy moslashuvchanlik hamda texnologik innovatsiyalarga asoslangan yondashuvlar sifatida ajralib turdi. Muvofiqlik koeffitsiyenti (0.07) baholash jarayonining izchil va ishonchli amalga oshirilganini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari ijtimoiy media marketingi O'zbekiston turizmida marketing samaradorligi va kompaniya kompetensiyasini oshirishda muhim omil ekanini tasdiqlaydi. Strategik yondashuv sifatida yuqori sifatli vizual kontent, muntazam nashrlar va foydalanuvchilar bilan faol aloqa raqobatbardoshlikni kuchaytiradi. Shu asosda turizm sohasida raqamli transformatsiyani jadallashtirish va SMM asosida kompleks rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Dissertatsiyaning **“Turizmni rivojlantirishda ijtimoiy media marketingi samaradorligini tahlil qilish”** deb nomlangan uchinchi bobida turizm sohasida ijtimoiy media marketingidagi samaradorlikni baholash metodologiyalari o'rganilgan. Ijtimoiy media marketingi bugungi kunda sayohat rejalarini tuzishda muhim rol o'ynaydi va bu jarayon marketing strategiyalarini shakllantirishda yangi yondashuvlar talab qiladi.

²⁰ Muallif ishlanmasi.

7-jadval


2016–2024-yillarda O‘zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni, yosh tarkibi, safar maqsadlari va geografik kelib chiqishi bo‘yicha tahliliy ko‘rsatkichlar (ming nafar)²¹

Ko‘rsatkichlar nomi	2016 yil	2017 yil	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil
Tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni	2 027,0	2 690,1	5 346,2	6 748,5	1 504,1	1 881,3	5 232,8	6 626,3	7 288,3
<u>shundan yoshlar kesimida:</u>	2 027,0	2 690,1	5 346,2	6 748,5	1 504,1	1 881,3	5 232,8	6 626,3	7 288,3
0 dan 18 yoshgacha	164,8	218,7	434,6	611,8	140,7	270,9	723,3	1 064,6	1 246,3
19 dan 30 yoshgacha	413,4	548,6	1 090,3	1 315,9	285,8	312,6	846,5	1 000,2	1 054,7
31 dan 55 yoshgacha	1 056,2	1 401,7	2 785,7	3 458,6	787,5	935,4	2 593,4	3 192,8	3 451,3
55 yoshdan oshgan	392,7	521,1	1 035,6	1 362,2	290,2	362,5	1 069,6	1 368,7	1 536,0
<u>shundan safar maqsadlari bo‘yicha:</u>	2 027,0	2 690,1	5 346,2	6 748,5	1 504,1	1 881,3	5 232,8	6 626,2	7 288,3
xizmat	149,7	28,4	56,5	53,1	17,4	60,7	83,8	143,6	241,0
o‘qish	6,3	7,4	14,6	21,4	4,7	6,4	8,8	16,8	24,1
dam olish va bo‘sh vaqt	175,5	230,5	458,1	1 043,9	129,3	155,1	392,2	773,3	1 100,6
qarindoshlari yo‘qlash	1 651,2	2 371,7	4 713,5	5 520,7	1 321,4	1 613,1	4 657,6	5 561,3	5 658,7
davolanish	27,1	26,4	52,5	55,5	15,0	32,4	70,0	61,3	98,8
tijorat	17,2	25,6	50,9	53,9	16,3	13,6	20,5	70,3	165,1
<u>tashrif geografiyasi bo‘yicha</u>			5 346,2	6 748,5	1 504,1	1 881,3	5 232,8	6 626,3	7 288,3
qo‘shni davlatlardan			4 658,4	5 827,1	1 350,4	1 540,9	4 364,8	5 349,5	5 841,2
qolgan MDH davlatlaridan			406,2	495,6	90,0	208,2	606,4	763,2	794,1
boshqa davlatlardan			281,6	425,8	63,8	132,3	261,6	513,7	653,0

7-jadval tahliliga ko‘ra, 2016–2024-yillar davomida O‘zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni barqaror o‘shish tendensiyasiga ega. Turistlar tarkibida yoshlar va mehnatga layoqatli aholi ulushi yuqori bo‘lib, safar maqsadlari ichida qarindoshlarni yo‘qlash, xizmat va dam olish yo‘nalishlari ustunlik qilmoqda. Geografik tarkibda esa asosiy sayyohlar oqimi qo‘shni davlatlardan shakllanmoqda. Umuman olganda, mavjud raqamlar O‘zbekistonda turizm sohasining o‘shishi va safar maqsadlari diversifikatsiyasi bosqichma-bosqich kengayib borayotganini ko‘rsatadi.

Turizm sohasida marketing samaradorligini baholash uchun bir qator metodologiyalar ishlab chiqilgan. Masalan, Dimitrios Buhalis tomonidan taqdim etilgan “e-tourism” konsepsiyasi mijozlar bilan o‘zaro aloqa va kontent samaradorligini baholashda muhim ahamiyatga ega. Daniel Leung va Rob Law esa vizual kontentning samaradorligini baholashga yangicha yondashuv kiritdilar. Ularning ishlari foydalanuvchilar tomonidan yaratilgan kontent va mijozlarning fikr-mulohazalarini tahlil qilishga qaratilgan.


²¹ www.stat.uz



3-rasm. Turizm sohasida ijtimoiy media marketingidagi brend strategiyasini baholash mezonlari (Digital Presence) – 20 ball²²

3-rasmda keltirilgan turizm sohasida ijtimoiy media marketingidagi brend strategiyasini baholash mezonlari (Digital Presence) metodologiyasi kompaniyaning ijtimoiy media marketingidagi mavjudligini baholash imkonini


²² Muallif ishlanmasi.



3-rasm (davomi). Turizm sohasida ijtimoiy media marketingidagi brend strategiyasini baholash mezonlari (Digital Presence) – 20 ball²³

beradi. Ushbu metodologiya platformalar soni, to'liqligi, branding sifati va kontentning regulyarligi kabi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Bu yondashuv marketing strategiyalarini optimallashtirishga yordam beradi va kompaniyalarga raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi. Digital Presence orqali

²³ Muallif ishlanmasi.



4-rasm. Turistik korxonalarning ijtimoiy media marketingdagi mavjudligini professional darajada baholash va rivojlantirish usuli ²⁴

kompaniyalar o'z marketing faoliyatlarini baholash va yaxshilash uchun zarur ma'lumotlar oladi. Digital Presence kompaniyaning ijtimoiy media marketingdagi mavjudligi va faolligini kompleks baholaydigan ko'rsatkich hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar va ijtimoiy media marketingi turizm marketingi landshaftini tubdan

²⁴ Muallif ishlanmasi

o'zgartirgan. Ular sayohatchilar bilan onlayn muloqot qilish imkoniyatini taqdim etadi.

Raqamli platformalar orqali kompaniyalar o'z xizmatlarini keng auditoriyaga taqdim etadi. Bu esa, o'z navbatida, raqamli marketing strategiyalarini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy media marketingi orqali zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, xususan, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar tahlili marketing kompaniyalari samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi. 4-rasmda keltirilgan usul kompaniyaning ijtimoiy media marketingidagi mavjudligini professional darajada baholash va rivojlantirish imkonini beradi. Metodologiyaing detalli strukturasi har bir element bo'yicha aniq ko'rsatmalar va tavsiyalar ishlab chiqishga yordam beradi. Digital Presence metodologiyasi hozirgi kunda marketingning eng muhim quroli bo'lib, u juda ko'p foydali jihatlarga ega.

Marketing faoliyatini baholashda zamonaviy o'lchov usullaridan foydalaniladi. Masalan, har bir ijtimoiy tarmoq (Facebook, Instagram, Telegram va boshqalar) uchun alohida ball tizimi ishlab chiqilib, marketing xarajatlari va budjetni optimal taqsimlash imkoni yaratiladi. Mazkur tizimning asosiy afzalligi, birinchi navbatda, barcha ijtimoiy media platformalarini yagona boshqaruv tizimida birlashtirishidir. Bu esa ijtimoiy media marketingi faoliyatini kompleks tarzda tahlil qilish va samarali boshqarish imkonini beradi. Shuningdek, marketingga doir ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash jarayoni ham ancha takomillashtirilgan. Bu holat, o'z navbatida, raqobatchilar bilan taqqoslash, samaradorlikni baholash va asosli qarorlar qabul uchun maxsus ilmiy modellar ishlab chiqishni talab etadi.

Har bir so'mdan maksimal foyda olish va natijalarni doimiy kuzatib borish mumkin. Tizim real vaqt rejimida ishlaydi. Ya'ni marketing faoliyatidagi har qanday o'zgarishni zudlik bilan kuzatish va kerakli choralar ko'rish mumkin. Bu esa muammolarni oldindan ko'rish va hal qilish imkonini beradi. Xodimlarni o'qitish va malakasini oshirish ham zamonaviy usullarda olib boriladi.

Quyidagi 8-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, O'zbekiston turistik kompaniyalarining ijtimoiy media marketing faoliyati turlicha darajada shakllangan, kompaniyalar raqamli platformalarda marketing samaradorligini oshirish yo'lida turli yondashuvlardan foydalanmoqda. Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, "Bekas Travel" va "Mega Tour" kompaniyalari kontent diversifikatsiyasi, vizual materiallar tayyorlash va interaktiv yondashuvlar bo'yicha yetakchi hisoblanadi. Xususan, Instagram va YouTube kabi zamonaviy platformalarda faoliyat yuqori natija bermoqda. Biroq "Delfin Travel", "Coastal Wind Tour" va "Four Tour" kompaniyalarida foydalanuvchi kontentidan samarali foydalanish, inflyuenser marketingi, jonli efir va virtual sayohat imkoniyatlarini kengaytirish zarurati mavjud. Umuman olganda, 6-jadval asosida kompaniyalarda quyidagi yo'nalishlarda chora-tadbirlarni kuchaytirish tavsiya etiladi: kontent turini kengaytirish va sifatini oshirish; foydalanuvchi ishtirokini faol rag'batlantirish; interaktiv nashrlar va jonli efirlarni ko'paytirish; inflyuenserlar va mashhur blogerlar bilan hamkorlikni rivojlantirish; madaniy meros va milliy qadriyatlarini zamonaviy yondashuv asosida targ'ib qilish.

O‘zbekiston turistik kompaniyalarining ijtimoiy media marketing faoliyatidagi qiyosiy ko‘rsatkichlari²⁵

Ko‘rsatkichlar	“Bekas Travel”	“Mega Tour”	“Delfin Travel”	“Coastal Wind Tour”	“Four Tour”
Kontent diversifikatsiyasi	Ha	Ha	Qisman	Ha	Qisman
Foydalanuvchi kontenti	Ha	Qisman	Ha	Yo‘q	Qisman
Interaktiv nashrlar	Ha	Ha	Qisman	Yo‘q	Ha
Vizual kontent (foto/video)	Juda faol	Faol	O‘rtacha	Faol	Juda faol
Inflyuenserlar bilan hamkorlik	Qisman	Ha	Yo‘q	Yo‘q	Ha
Madaniy merosga urg‘u	Ha	Ha	Qisman	Qisman	Ha
Jonli efir/virtual sayohat	Qisman	Ha	Yo‘q	Yo‘q	Qisman
Eng faol platforma	Instagram	Instagram	Facebook	Instagram	YouTube

Har bir xodim o‘z yo‘nalishi bo‘yicha chuqur bilim olish bilan birga, boshqa sohalar bilan bog‘liq ko‘nikmalarga ham ega. Yangi texnologiyalarni joriy etish jarayoni ham puxta o‘ylangan. Marketing tizimi doimo yangilanib, zamonaviy texnologiyalar bilan boyitib boriladi. Eng muhimi, bu tizimni har qanday biznesga moslashtirish mumkin. Katta kompaniyalar ham, kichik biznes vakillari ham bundan o‘z ehtiyojlariga qarab foydalanishi mumkin. Bu esa har bir biznes uchun o‘ziga xos marketing strategiyasini ishlab chiqish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning **“Turizmda ijtimoiy media marketingini rivojlantirish istiqbollari”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida ijtimoiy media marketingining turizm sohasidagi ahamiyati va rivojlanish istiqbollari ko‘rib chiqilgan. Raqamli ulanishlarning o‘sishi sayohatchilarning qaror qabul qilish jarayonida ijtimoiy media marketingining muhim rolini oshirdi. Muvaffaqiyatli marketing strategiyalari raqamli texnologiyalarni qamrab olishi va barqaror turizm rivojini ta‘minlashi zarur.

Raqamli ulanishning ortishi sayohatchilarning qaror qabul qilish jarayoniga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Bu holat, ayniqsa, sayohatni rejalashtirish va xarid qilish bosqichida ijtimoiy media marketingining ahamiyatini oshirmoqda. Muvaffaqiyatli turizm marketingi kampaniyalari zamonaviy raqamli strategiyalar talab etadi. Shu bilan birga, barqaror turizm rivoji uzoq muddatli ijobiy natijalarga erishishda muhim o‘rin tutadi. Turistik joylarning raqamli marketing samaradorligi asosida barqaror rivojlanishini ta‘minlash va raqobatbardoshligini oshirish faqatgina zamonaviy raqamli marketing yondashuvlarini qo‘llash orqali amalga oshirilishi mumkin.

Tadqiqot davomida turizm marketingi samaradorligiga ta‘sir qiluvchi asosiy omillar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklar aniqlanib, korrelyatsion tahlil asosida baholandi (9-jadval). Jumladan, turistlar oqimi va ijtimoiy media reklama xarajatlari o‘rtasida ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqlik kuzatildi ($r = 0.579$, $p < 0.1$). Bu holat marketing xarajatlarini maqsadli yo‘naltirish turistlar oqimini oshirishda muhim omil bo‘lishini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, raqamli ko‘rinuvchanlik va ijtimoiy media orqali foydalanuvchilarni jalb qilish o‘rtasida ham yuqori ijobiy bog‘liqlik aniqlangan ($r = 0.700^*$, $p < 0.1$), bu esa raqamli platformalarda samarali ishtirok etish orqali foydalanuvchilar e‘tiborini jalb qilish

²⁵ Muallif ishlanmasi.

imkonini beradi. Shu bilan birga, xarajatlar bilan raqamli ko‘rinuvchanlik o‘rtasidagi salbiy bog‘liqlik aniqlangan ($r = -0.469^*$). Bu – xarajatlar ko‘payganda, marketing samaradorligining pasayish xavfini ko‘rsatadi. Tahlilda mijoz tajribasi reytingi va ijtimoiy media ta’siri o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik mavjud bo‘lib ($r = 0.500^*$), bu foydalanuvchi ishonchi va brend imijini shakllantirishda ijtimoiy media strategiyalarining o‘rni muhim ekanini tasdiqlaydi. Shuningdek, infratuzilma mavjudligi, shahar va qishloq aholisi soni, iqtisodiy ta’sir kabi omillar bilan turistlar oqimi o‘rtasida sezilarli korrelyatsiyalar mavjud bo‘lib, bu kompleks yondashuv talab etadi. Umuman olganda, korrelyatsion tahlil natijalari ijtimoiy media marketingi elementlarining turizm oqimiga qanday ta’sir qilayotganini miqdoriy jihatdan baholash imkonini berdi va marketing strategiyalarini optimallashtirish uchun empirik asos yaratdi.

9-jadval

Turizm raqamli marketing va ijtimoiy media marketingining turistlar oqimiga ta’siri bo‘yicha korrelyatsiya jadvali²⁶

O‘zgaruvchilar	(1)	(2)	(3)	(4)	(5)	(6)	(7)	(8)	(9)	(10)	(11)	(12)	(13)
(1) turistlar oqimi	1.000												
(2) sm jalbi	-0.244	1.000											
(3) raqamli ko‘rinuvchanlik	-0.398	0.700	1.000										
		*											
(4) xarajatlar	0.098	-0.436	-	1.000									
			0.469										
			*										
(5) barqarorlik	0.194	-0.361	-0.286	0.253	1.000								
(6) sm reklama xarajatlari	0.579	-0.240	-0.267	-0.141	-0.087	1.000							
	*												
(7) mijoz tajribasi reytingi	0.160	0.163	0.245	-0.310	-0.257	0.193	1.000						
(8) iqtisodiy ta’sir	-0.113	0.076	-0.016	0.125	0.037	-0.114	0.118	1.000					
(9) infratuzilma mavjudligi	-0.298	0.274	0.133	0.001	-0.148	-0.022	-0.343	0.059	1.000				
(10) shahar aholisi	0.102	0.305	0.207	-0.237	-0.237	0.292	0.239	0.198	-0.121	1.000			
(11) qishloq aholisi	0.211	-0.041	-0.001	-0.149	0.119	0.351	-0.015	0.282	-0.109	0.213	1.000		
(12) sm ta’siri	-0.099	0.007	0.064	0.071	-0.230	-0.067	0.500	0.248	-0.064	0.010	-0.399	1.000	
							*						
(13) so‘rovnomalar jalbi	-0.135	-0.034	0.113	-0.005	-0.068	-0.073	0.219	0.170	-0.021	-0.196	-0.014	0.164	1.000

*** $p < 0.01$, ** $p < 0.05$, * $p < 0.1$


Ijtimoiy media marketing strategiyalarini ishlab chiqishda madaniy kontentga e’tibor berish zarur. O‘zbekistonning boy madaniy merosini namoyish etish strategiyaning asosiy maqsadi bo‘lishi kerak. Foydalanuvchilarning faolligini oshirish uchun interaktiv kontentdan foydalanish tavsiya etiladi. Bu, ayniqsa, foydalanuvchilarni jalb qilish va ularning ishtirokini oshirishda alohida ahamiyatga ega. Har bir platforma uchun alohida strategiyalar ishlab chiqish va nashr vaqtini optimallashtirish ham muhimdir. Bu, eng yaxshi vaqtlarni aniqlash orqali tomoshabinlarning qiziqishini saqlab qolishga yordam beradi. Muntazam nashr qilish jadvalini saqlash ham dolzarb sanaladi, chunki bu tomoshabinlarni doimiy ravishda jalb qilish imkonini beradi.

Dissertatsiyada mamlakatimizda turizmni rivojlantirishda ijtimoiy media marketingi samaradorligini oshirishning iqtisodiy qonuniyatlari hamda sabab-oqibat omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash maqsad qilingan. Tadqiqot

²⁶ Muallif ishlanmasi.

doirasida ekonometrik model asosida 2030-yilgacha prognoz qiymatlari ishlab chiqish nazarda tutilgan.

Regression modellar $LnY_1 = -4.24*LnX_2 + 2.77*LnX_3 + 35.95$ va $LnY_2 = -5.5*LnX_2 + 2.43*LnX_3 + 1.45*LnX_4 + 45.29$ asosida prognoz qiymatlar hisoblangan.




5-rasm. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishda ijtimoiy media marketing samaradorligini oshirishning (turistlar soni) 2030-yilgacha prognoz qiymatlari grafigi²⁷

2025–2030-yillar uchun prognoz ko‘rsatkichlari O‘zbekistonda turizm sohasining kelgusi yillarda qanday yo‘nalishda rivojlanishini ikki xil ssenariy orqali ochib beradi. Inersion ssenariyga ko‘ra, mavjud holat, siyosat va infratuzilma saqlanib qolgan taqdirda, turizm xizmatlari eksporti hajmi 2025-yilda 2,65 mlrd AQSh dollaridan 2030-yilda 3,73 mlrd dollarga yetadi. Bu davrda o‘shish sur‘ati sekin, ammo barqaror bo‘lib, umumiy 41 % o‘shish kuzatilmoqda. Shu kabi xorijiy turistlar soni ham 2025-yilda 8761,6 ming nafardan 2030-yilda 11742,6 ming nafarga ortadi – bu esa 34 %lik o‘shishni anglatadi.

Aksincha, innovatsion ssenariyga ko‘ra, turizm sohasiga ilg‘or texnologiyalar joriy etilishi, raqamli infratuzilmaning to‘liq integratsiyasi, xalqaro targ‘ibotning kuchaytirilishi, madaniy va media xizmatlar eksportining kengaytirilishi natijasida sezilarli yutuqlarga erishiladi. Bu ssenariy bo‘yicha 2025-yilda eksport hajmi 3,67 mlrd dollardan boshlanib, 2030-yilda 5,68 mlrd dollarga yetadi, bu 55 %dan ortiq o‘shishni bildiradi. Xorijiy turistlar soni esa 2025-yildagi 18,5 mln nafardan 2030-yilda 33,8 mln nafarga ko‘tariladi, bu esa 82 %lik o‘shishdir. Bunday natijalar turizm sohasining YIMdagi ulushini oshiradi, bandlikni ko‘paytiradi va xorijiy valyuta tushumlarini sezilarli darajada yaxshilaydi.

